

## **Hayotini ilm va adabiyotga bag'ishlagan inson**

***Gulruxsor Tohirjonova***

*O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti 1-bosqich  
talabasi.*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada yurtimiz tarixida o'chmaz iz qoldirgan fidoiy insonlardan biri Ozod Sharafiddinov haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar.*** O.Sharafiddinov, xalqsevar, vatanparvar, xalq, Qo'qon, Oxunqaynar, adabiyot, asar.

Vatan bizning hayotimizdagi eng katta qadriyat. Har bir farzand ulg'aygan makonini rivoji va ravnaqi uchun kichik bo'lsada hissa qo'shishi, yorqin kelajagi uchun mas'uliyathissini tuymog'i lozim. Zero, Ona bittadir Vatan yagona. Ozod Sharafiddinov jannatmakon yurtimizning haqiqiy xalqsevar, vatanparvar farzandidir. Umri davomida "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" degan ibora hamrohi bo'lgan. Vatanga bo'lgan muhabbatini uzoq yillik samarali mehnatlarida ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Vatan tuyg'usining sehrli qudrati bilan o'z xalqining e'tibori va e'zozini qozondi.

Ozod Sharafiddinov adabiyotshunos, adabiy tanqidchi. Ozod Sharafiddinov 1929-yil 1-martda Qo'qon yaqinidagi Oxunqaynar qishlog'ida tavallud topgan. Toshkentdagi 14-o'rta maktabni, O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetini tamomlab (1951). Moskvada aspiranturada tahsil olib, fan nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo'lgan (1955). Ozod Sharafiddinov poeziya muammolari bilan mashg'ul bo'lib, o'zbek she'riyati va uning holati haqida adabiy-tanqidiy maqolalar yozgan.

O'sha davrdagi ilmiy-ijodiy, adabiy-tanqidiy izlanishlari «Zamon. Qalb. Poeziya» (1962) asarida o'z aksini topgan. XX asrning 60-80 yillarida u Cho'lpon hayoti va ijodini targ'ib qilishga intildi. O. Sharafiddinov o'zbek adabiyotining

Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratdi: «Iste'dod jilolari» (1976), «Adabiy etyudlar» (1968), «Abdulla Qahhor» (1988), «Birinchi mo'jiza» (1979). Olim ijodida o'zga adabiyotlar namoyandalari ijodi haqida yaratilgan «Yalovbardorlar» (1974) adabiy-tanqidiy ocherklar kitobi muhim o'rin egallaydi. O. Sharafiddinov XX asrning 60- yillaridan XIX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiy jarayonidagi holatlarni «Talant – xalq mulki» (1979), «Adabiyot – hayot darsligi» (1981), «Go'zallik izlab» (1985), «Haqiqatga sadoqat» (1988), «Sardaftar sahifalari» (1999), «Prezident» (2003) singari asarlarida aks ettirgan.

Ozod Sharafiddinov hayotni ilm va adabiyotga baxshida etgan inson deb aytish mumkin. Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. “Cho'lpon” (1991), “Cho'lponni anglash” (1994) kitoblari, “E'tiqodimni nega o'zgartirdim” (1997) asarlarida munaqqidning estetik prinsiplari aks etgan. Keyingi yillarda Ozod Sharafiddinov o'zbek adiblari, madaniyat-san'at arboblari, olimlar haqida o'nlab maqolalar yozdi. U jahon adabiyotining ko'plab namoyandalari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. “Ko'lmak suvda quyosh parchasi” (Fransuaza Sagan), “Qadimgi xitoy nasri namunalari”, “Monumental targ'ibot” (Vl. Boynovich), “Al-ximik” (Paulo Koel'o) singarilar.<sup>49</sup>Ozod Sharafiddinov ijodining cho'qqisi “Ijodni anglash baxti” (2004) kitobidir. Unda o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o'rni va ilmiy-ma'naviy o'zanlari tadqiq etib berilgan.<sup>50</sup>Taniqli adabiyotshunos, munaqqid professor Ozod Sharafiddinov adabiy bahs hamda munozaralarda o'z fikri, o'z talqini va tanqidiy qarashlari bor takrorlanmas shaxs. Biz ulardan Ona Vatanga sadoqat, adabiyotga cheksiz muhabbat, kasbga nisbatan fidoiyligni o'rganishimiz kerak.

Ozod Sharafiddinovning ijodida so'zlarning uyg'unligi, ulardan to'g'ri foydalanish, oddiy so'zlarda chuqur ma'no yaratish singari mahoratlarni guvohi bo'lish shubhasiz. Adabiyotshunos, kuchli so'z ustasi bo'lgan va u deyarli hamma yo'nalishlarda ijod qilgan. Ozod Sharafiddinov butun umri davomida vatanga sadoqat tuyg'usi bilan yashagan. Ijodkor o'zining to'g'ri so'zi, irodasi va vatanga

bo'lgan cheksiz muhabbati orqali yurtimiz ravnaqi yo'lida ko'plab samarali ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan. Adabiyotimizda juda ko'plab yozuvchilarimiz o'z ijod xazinalarini turli xil ijod namunalari bilan, ayniqsa yurt haqidagi asarlar bilan boyitishgan. Ozod Sharafiddinov ham mazmundor, ijod namunalari yarata olgan. Ya'ni olim o'zbek adabiyotida alohida o'z mavqeiga va o'rniga ega bo'la olgan shaxsdir.

Ozod Sharafiddinov o'zi kitob mutolaa qilish bilan birga, kitobxonlarni ham juda yahshi ko'rgan. Ularga katta ehtirom va hurmat ko'rsatgan. Adib ko'p mutoalaa bilan shug'ullanganli tufayli o'tkir qalam sohibi bo'lgan va undagi katta iste'dodni ko'rgan sevimli adibimiz Abdulla Qahhor uni o'z bag'riga olib mehr bergan. Ozod Sharafiddinov mohir yozuvchi, tanqidchi, zahmatkash olim va mehribon ota sifatida bu yorug' olamda katta iz qoldirdi. O'zidan ulkan ijodiy va adabiy meros qoldirdi. Uning adabiy me'rosi butun o'zbek adabiyotining o'lmas boyligi bo'lib qoldi. Uning asarlarida nafaqat o'tmishning balki, hozir va kelajakning hayot tarzi aks etgan. Ozod Sharafiddinovning ijod namunalari o'zbek adabiyotida o'zining o'rniga, uslubiga va xarakteriga ega. Uning "Zamon", "Qalb", "Poeziya", "Yalovbardorlar", "Iste'dod jilolari", "Birinchi mo'jiza", "Adabiyot-hayot darsligi", "Cho'lponni anglash", "Ijodni anglash baxti", "Davondagi o'ylar" kabi adabiy-tanqidiy asarlari chop etildi. Ozod Sharafiddinovning 28 ta asari chop etilgan va matbuotdagi maqolalari 385 tani tshkil etadi, tarjima asarlari esa 150 ga yaqin. Bundan tashqari, yozuvchi bir nechalab shogirdlar qoldirdi. Ozod Sharafiddinov adabiyotimiz va mulohazamiz taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan bo'lib buyuk va mangu siymo sifatida tan olingan. Ayniqsa, uning tanqidiy va tahliliy fikrlashi ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lgan. Shuning uchun adabiyotshunos tanqidchilik sohasida ham ko'plar ijod qilgan. Tanqid – biror sohani to'la to'kis ko'rib chiqish, uning ustun tomonlari va kamchiliklarini yoritish va qaysidir ma'noda atrofdagilarning e'tiborini jalb etishdir. Ozod Sharafiddinov ham ko'plab soha yoki mavzularda o'z tanqid usulidan foydalanib, aynan o'sha sohani rivojlanishga, kamchiliklarni yo'qotishga va yanada mustahkam bo'lishiga ulkan hissa qo'shgan. Ozod Sharafiddinov o'z kasbdoshlari va yaqinlarini tahlilda bir

yoqlamalikdan , bir xillikdan yiroqlashtirishga undagan. Ozod Sharafiddinov bejizga “ haqiqiy iste’dod egasi hech qachon jo’ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo’lmaydi” demagan. Ozod Sharafiddinov tanqidchilikda aql o’rgatish yoki xato topishga emas balki, o’sha asarni aynan nozik nuqtalarini ochib berishga va yanada badiiylikni kengroq targ’ib etishga harakat qilgan.

Ozod Sharafiddinov biz yosh avlodga tengsiz adabiy meros qoldirgan. Turli to‘plamlardagi maqolalar, kirish so‘zlar va so‘ngso‘zlar, suhbatlar, alohida chop etilgan asarlar, tarjima asarlari ustozni nihoyatda barakali, sermahsul ijod qilganidan dalolat beradi. O.Sharafiddinov kitobxonlarni asar o‘qishga, badiiy adabiyotdan bahramand bo‘lishga da‘vat qilgan. Ijodkor badiiy adabiyot orqali o‘tmish bilan birga bugungi kunimizni yaxshiroq anglab olishimizga ishongan. “Adabiyot insonga olam haqida bilim berish bilan birga, ayni choqda, uning ruhiy olamini boyitishga, uning qalbida umumbashariy ma‘naviy e‘tiqodlarning barg yozishiga ko‘maklashadi.” —degan edi olim.

O. Sharafiddinov XX asrning 90-yillari o‘rtalarigacha O‘zbekiston Milliy universitetida professor bo‘ldi. 1995—1997 yillarda «Tafakkur» jurnali bosh muharrir o‘rinbosari vazifasini bajargan. U 1997 yildan beri «Jahon adabiyoti» jurnalining bosh muharriri. O. Sharafiddinov Beruniy nomidagi Davlat Mukofoti laureati (1970), «Buyuk xizmatlari uchun» (1999), «Mehnat shuhrati» (1997) ordenlari sohibi. 2002 yil 23 avgustda O. Sharafiddinovga «O‘zbekiston qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.**

1. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O‘qituvchi“, 1999.
- 2.O.Sharafiddinov. Adabiyot –hayot darsligi. Toshkent, “G‘afur G‘ulom” nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
3. Toxir Malik. Umidimiz yulduzlariga : “Odamiylik mulki” ga doir suhbatlar-Toshkent: “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti , 2018-688
- 4.Ozod Sharafiddinov “Ijodni anglash baxti”. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 2004.